ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILI HAQORATLI SO‘ZLAR IZOHLI LUG‘ATINI TUZISH TAMOYILLARI

Sobirova Gulshana Faxriddinovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

Til – millat ma'naviyatining eng muhim ifodachisi bo‘lib, uning tarkibiy qismlari jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va psixologik holatlarning ko‘zgusidir. Har bir tilda mavjud bo‘lgan etik me'yorlardan chetga chiqadigan, salbiy emotsional ma'noga ega birliklar – haqoratli so‘zlar tilshunoslikda alohida e'tiborni talab qiladigan sohalardan biridir. Bu so‘zlar orqali insonning kayfiyati, ijtimoiy holati, madaniy muhitga munosabati ifodalanadi. Ayniqsa, kommunikativ jarayonlarda bunday birliklarning tahlili shaxslararo munosabatlarni anglash, til madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek tilida qo‘llanilayotgan haqoratli so‘zlar aksariyat hollarda norasmiy nutqda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan bo‘lib, ularning semantik yuklamasi va qo‘llanish konteksti o‘zgaruvchanligiga qarab baholanadi. Shunga qaramay, bunday birliklarning lingvistik tahlili va izohli lug‘at shaklida tizimlashtirilishi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. O‘zbek tilshunosligida asosan badiiy matnlardagi haqoratli birliklar tahlil qilingan. Ushbu birliklar to‘g‘risida Tadqiqotchi J.O‘rozov «Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili» nomli maqolasida to‘xtalib o‘tgan.[1]

Mazkur maqola o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish, ularning izohli lug‘atini tuzishda zarur bo‘ladigan ilmiy-tadqiqiy va metodologik tamoyillarni aniqlash, shuningdek, ularni tasniflash va kontekstual izohlash asoslarini belgilashga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bunday lug‘at jamiyatda til madaniyatini oshirish, bolalar va yoshlar nutqini nazorat qilish, ta'lim va huquq sohalarida ehtiyotkorlik bilan foydalaniladigan material sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jahon tilshunoslari K.Allan va K.Burridge « Forbidden Words: Taboo and the censoring of language» kitobida haqoratli so‘zlarga shunday ta'rif berilgan: «Tilshunoslikda haqoratli so‘zlar kommunikativ pragmatika, emotsional semantika va madaniy-lingvistik doiralar kesishmasida o‘rganiladi. Bu turdagi birliklar tilning rasmiy va norasmiy qatlamlarini ajratishda, shuningdek, axloqiy va ijtimoiy chegaralarni belgilovchi lingvokultural markerlar sifatida ko‘riladi».[2]

Umuman olganda, haqoratli so‘zlar faqat til jihatidan emas, balki madaniy, ijtimoiy va axloqiy nuqtai nazardan ham o‘rganiladi. Ular tilning rasmiy va norasmiy qatlamlarini ajratishda yordam beradi, chunki ba'zi so‘zlar ba'zi kontekstlarda qabul qilinadi, boshqalarida esa qattiq taqiqlanadi. Lingvokulturologik markerlar haqoratli so‘zlarning madaniyatga, ijtimoiy me'yorlarga va axloqiy chegaralarga qanday bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Haqoratli so‘zlar lingvistikada ko‘pincha tabu (man etilgan so‘zlar), dizfemizm (atayin salbiy ta'sir uyg‘otuvchi so‘zlar) va emotsional semalar orqali izohlanadi. Keith Allan va Kate Burridge o‘zlarining «Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language» asarida haqoratli so‘zlarni ijtimoiy senzura obyekti sifatida baholab, ularni quyidagi toifalarga ajratadi:

a) jinsiy hayot va tana qismlari bilan bog‘liq so‘zlar;
b) irqchilik yoki etnik kamsitish so‘zlari;
c) diniy, axloqiy qadriyatlarni buzuvchi so‘zlar.[3]

O‘zbek tilida haqoratli so‘zlar orqali shaxsga nisbatan salbiy munosabat, g‘azab yoki mensimaslik ifodalanadi. Bu so‘zlar ko‘pincha jinsiy hayot, tana qismlari, yosh, ijtimoiy mavqe, millat yoki diniy e'tiqod kabi sezgir mavzular bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ingliz tilida «Oxford Dictionary of Slang»[4], «Rout-

[1] O‘rozov J. Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili/ O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya1(5).32-43.
[2] Allan.K and Burridgening.K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2006. - p. 35
[3] Allan.K and Burridgening.K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2006. - p. 48.
[3] Ayto.J. The Oxford Dictionary of slang. – Oxford University Press, 2003. -p.480
[5] Peckham.A. Urban Dictionary: Freshest Street Slang Defined. –Andrews McMeel Publishing, 2012. -p.272.
[4]

ledge Dictionary of Language and Culture» [1] kabi manbalar orqali haqoratli va senzuralangan so‘zlar izohli tarzda bayon etilgan. Ushbu lug‘atlarda har bir so‘zga muqobil, yumshatilgan variantlar, tarixiy kelib chiqish, jamiyatdagi qabul darajasi haqida ham ma’lumot beriladi. Bu lug‘atlar asosida axloqiy mezonlar, yoshga oid cheklovlar va nutq etikasi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Haqoratli so‘zlarni lug‘atlashtirish – bu faqatgina so‘zlarni jamlash emas, balki ularni lingvistik, psixolingvistik va ijtimoiy-pragmatik mezonlar asosida tizimlashtirishdir. O‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlar tahlili, ularni izohlash usullari, lug‘atga kiritish tamoyillari va xorijiy tajribadan o‘rganiladigan jihatlar ko‘rib chiqiladi.

Haqoratli so‘zlarni aniqlash mezonlari:

1. Emotsional-belgilovchi mezon: so‘zning salbiy emotsional ifoda vositasi sifatida qo‘llanishi (masalan, «ahmoq»).

2. Kommunikativ-pragmatik mezon: so‘zning muomala vaziyatida kamsituvchi, tahqirlovchi maqsadda ishlatilishi.

3. Kontekstual mezon: so‘zning haqorat tusini aynan qo‘llanish kontekstida olish holati.

4. Ijtimoiy-me’yoriy mezon: so‘zning jamiyatda nomaqbul, odobsizlik belgisi sifatida qabul qilinishi.

O‘zbek tilida haqorat leksikasi ijtimoiy muloqotda keng qo‘llaniladi va hissiy munosabatni ifoda etuvchi o‘ziga xos so‘zlar to‘plamini tashkil etadi. Ushbu qatlamni o‘rganish tilshunoslikning semantika, pragmatika va sotsiolingvistika yo‘nalishlari doirasida muhim masalalardan biridir. Haqorat leksikasining tasnifi va talqini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

O‘zbek tilidagi haqorat so‘zlari ma’no, shakl va ishlatilish usullariga ko‘ra tasniflanadi:

a) Ma’noviy tasnif

1. Shaxsiy xususiyatga taalluqli haqoratlar:

Bu guruhdagi so‘zlar insonning xulq-atvori, axloqi yoki intellektiga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Masalan: nodon, ahmoq, bema’ni.

2. Tashqi ko‘rinishga oid haqoratlar:

Insonning tashqi ko‘rinishini mazax qiluvchi yoki tanqid qiluvchi so‘zlar. Masalan: semiz, qiyshiq, kalta.

3. Hayvonlarga qiyosiy haqoratlar:

Insonni hayvonlarga tenglashtirish orqali salbiy ta’sir bildiriladi. Masalan: it, eshak, cho‘chqa.

4. Ijtimoiy mavqega oid haqoratlar:

Insonning jamiyatdagi o‘rni yoki faoliyatini tanqid qiluvchi so‘zlar. Masalan: yalqov, dangasa.

b) Shakliy tasnif

1. Oddiy so‘z shaklidagi haqoratlar: Bitta so‘zdan iborat bo‘lib, asosiy ma’noni ifodalaydi. Masalan: ahmoq, tentak.

2. So‘z birikmalari va iboralar: Haqoratli ma’no ko‘p so‘zli tuzilmalar orqali ifodalanadi. Masalan: aqli past, boshi ishlamaydi,qirilib ketgur

3. Murakkab shakllar va qo‘shimchalangan so‘zlar: qo‘shimchalar bilan ifoda kuchaytiriladi. Masalan: itvachcha, yaramaslar.

c) Foydalanish usuliga ko‘ra tasnif:

1. Bevosita haqoratlar: So‘zlovchining maqsadi aniq salbiy munosabatni ifodalashdir.

2. Bilvosita (yashirin) haqoratlar: Hazil yoki kinoya orqali haqorat ma’nosi beriladi.

Masalan: Juda «aqlli» bo‘libsan!

2. Haqorat leksikasining talqini:

a) Semantik talqin

O‘zbek tilidagi haqorat leksikasi salbiy ma’noni ifoda etuvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu so‘zlarning asosiy ma’nosi (denotativ) va qo‘shimcha ma’nosi (konnotativ) mavjud: It – asosiy ma’nosi hayvon bo‘lsa, qo‘shimcha ma’noda insonning axloqsizligini ifodalaydi. Ahmoq – asosiy ma’noda aqliy pastlikni, konnotatsiyada esa kamsitishni bildiradi.

b) Pragmatik talqin

Haqorat so‘zlari ma’lum kontekstda o‘z ma’nosini o‘zgartirishi mumkin: Do‘stlar orasida ishlatilganda hazil sifatida qabul qilinishi mumkin: E, nodon, bunaqa qilma!

Rasmiy muhitda esa haqorat sifatida qabul qilinadi.

Haqoratli so‘zlar ekspressivlik darajasiga ko‘ra ham ajratiladi:

a) Past ekspressivlik: jinni, dangasa, go‘l;
b) O‘rta ekspressivlik: tentak, sassiq, yaramas;
c) Yuqori ekspressivlik: la’nati, nobakor, kaltafahm.

O‘zbek tilida haqoratli so‘zlarning katta qismi insonni hayvonlarga tenglashtirish orqali ifodalanadi: «cho‘chqa», «eshak», «tovuq», «ilon», «it».

Ushbu so‘zlar shaxsning aqliy, jismoniy yoki axloqiy qiyofasini pastga urish niyatida qo‘llaniladi. Allan va Burridge bu haqda shunday deydilar:

«So‘kinish, ayniqsa patriarxal yoki ierarxik jamiyatlarda, gapiruvchining tinglovchi ustidan kuchini mustahkamlashga yordam beradi.»[2]

O‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlar ko‘pincha metafora asosida, ya’ni bir narsa yoki shaxsni boshqa ob’ekt orqali obrazli ifodalash yo‘li bilan shakllanadi. Bu lingvistik hodisa nutqdagi emotsional-ekspressiv vositalardan biri bo‘lib, inson xatti-harakatlari, fazi-

[1]

[2] Allan.K and Burridgening.K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2006. - p. 85.

latlari yoki kamchiliklarini boshqa predmet yoki mavjudotga o‘xshatish orqali haqorat, tahqir yoki past nazar bilan qarash maqsadida qo‘llaniladi. Ayniqsa, hayvon nomlari bilan bog‘liq metaforalar haqoratli nutq birliklarini yaratishda keng tarqalgan.

Masalan, «it», «eshak», «cho‘chqa», «maymun», «sigir» kabi hayvon nomlari kishi xulq-atvori, tafakkuri yoki ijtimoiy mavqeini pastlashtirish maqsadida qo‘llanadi. Bunday metaforalar o‘zbek xalq tafakkurida an’anaviy tarzda shakllanib, umumiy tilda hissiy-ekspressiv ma’no kasb etgan. Masalan, «eshak» – sekin harakat qiluvchi yoki aqli sust insonni, «cho‘chqa» – iflos va qo‘pol insonni, «tulki» – ayyor kimsani anglatadi. Ushbu misollar semantik ko‘chish asosida yaratilgan metaforik haqoratli birliklarning o‘ziga xos turini tashkil etadi.

Bu kabi birliklar zoomorf metafora [1]doirasiga kiradi. Zoomorf metafora – bu hayvonlarga xos belgilar orqali inson fe’l-atvori yoki ijtimoiy xatti-harakatini tasvirlash vositasi bo‘lib, odatda salbiy konnotatsiyaga ega. Bu holat tilshunoslikda kognitiv yondashuv asosida ham o‘rganiladi, chunki bunday metaforalar xalq mentaliteti, axloqiy me’yorlar va stereotiplar asosida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlar ko‘pincha metafora, ayniqsa zoomorf metafora asosida hosil bo‘lib, ular orqali nutq egasi o‘z salbiy munosabatini obrazli va kuchli ifoda etadi. Bunday birliklarning semantik va funksional tahlili ularning lingvokulturologik o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek jamiyatida ayniqsa ayollarga nisbatan ishlatiladigan haqoratlar (masalan, «bevafo», «fohisha», «tul», «iflos») jinsiy va ijtimoiy nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday so‘zlar orqali nafaqat shaxsiy tahqir, balki ayolning jamiyatdagi o‘rni va axloqiy qiyofasi ham baholanadi.

Yana bir muhim jihat – evfemizmalar, ya’ni haqoratli yoki nomaqbul so‘zlarning yumshatilgan variantlarini ishlatish holatidir. Masalan, o‘zbek tilida «bezori», «shum» kabi iboralar bevosita haqoratni bildirmasa-da, kinoya va pastlik ifodasi bilan ishlatiladi. Bu holat haqida mualliflar shunday yozadilar:

«Evfemizm (yumshatib aytish) taqiqlangan ifodalar yuzaga keltiradigan obro‘ga tahdid soluvchi ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi.»[2]

Ba’zi so‘zlar vaqt o‘tishi bilan semantik o‘zgarishlarga uchraydi:

Pejorativ o‘zgarish – So‘z avval neytral bo‘lib, keyinchalik salbiy tus oladi. Masalan, «nodon» so‘zi dastlab «bilimsiz» degan ma’noda bo‘lsa, keyinchalik salbiy ohang olgan.

Ameliorativ o‘zgarish – Salbiy so‘zlar ijobiy ma’no kasb etishi. Masalan, ba’zi do‘stona suhbatlarda «dangasa» yoki «tentak» kabi so‘zlar hazil ohangida ishlatilishi mumkin.

O‘zbek tilida ishlatilayotgan haqoratli so‘zlar orasida boshqa tillardan, xususan rus va ingliz tillaridan kirib kelgan birikmalarning ham mavjudligi kuzatiladi. Bunday birliklar ko‘pincha «ekzotik» [3]xarakter kasb etadi, ya’ni ular til tizimiga begona bo‘lsa-da, zamonaviy kommunikatsion muhit (ijtimoiy tarmoqlar, kino, ommaviy madaniyat) ta’sirida faol qo‘llanilmoqda.

Xususan, блядь, сволочь, fuck kabi so‘zlar o‘zbek tilida, ayniqsa o‘smirlar nutqida, ma’naviy-anglamasdan, ya’ni semantik mohiyatini to‘liq tushunmagan holda ishlatilmoqda. Ushbu hodisa lingvistik jihatdan «semantik o‘zlashishsiz fonetik-morfologik inkorporatsiya»deb ataladi.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, haqoratli so‘zlarni izohli lug‘atga kiritishda ularning shakl va mazmun xususiyatlari, kontekstual qo‘llanishi hamda ijtimoiy bahosi inobatga olinishi lozim. Har bir birlik imkon qadar neytral izoh asosida tavsiflanib, nutqdagi ishlatilish doirasi, stilistik boyligi va tarjimaviy ekvivalentlari bilan birga berilishi kerak. Ayniqsa, bunday so‘zlarning emotsional yuklamasi, og‘zaki nutqdagi darajasi va uslubiy funksiyasi lug‘at foydalanuvchilari uchun aniq va ixcham ko‘rinishda taqdim etilishi zarur. Shu orqali lug‘at nafaqat lingvistik ma’lumotlar, balki pragmatik yondashuvni ham o‘z ichiga oladi.

Izohli lug‘atda bunday birliklarni berishda quyidagi asosiy tamoyillar va shakllar e’tiborga olinadi:

1. Leksik birlikning asosiy shaklini berish:

Har bir haqoratli so‘z o‘zining adabiy yoki og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llanadigan shaklida, imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan holatda beriladi. Zarur hollarda fonetik variantlari (sleng, dialekt shakllari) ham ko‘rsatiladi. Masalan: «itvachcha» (dialekt: itbachcha, sleng: itdan bo‘lgan).

2. So‘z turkumi va grammatik belgilarini ko‘rsatish:

Lug‘atdagi birlik har doim uning so‘z turkumi (ot, sifat, fe’l va h.k.) bilan aniqlanadi, chunki bu, so‘zning gapdagi funksiyasini tushunishga yordam beradi. Masalan: cho‘chqa [ot] – odamga nisbatan iflos, jirkanch ma’nosida ishlatiladi.

3. Asosiy semantik (ma’no) izohini berish:

So‘zning asosiy haqoratli ma’nosi neytral va ilmiy ifoda orqali tushuntiriladi, subyektiv bahodan saqlaniladi. Bu izohda kamsituvchi konnotatsiyalar izchil yoritiladi. Masalan: maymun [ot] – insonni

[1] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (1-qism). V. – Toshkent: FIRDAVS-SHOH, 2021. - 180-s.
[2] Allan.K and Burridgening.K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2006. - p. 64
[9] Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (2-qism). V. – Toshkent: FIRDAVS-SHOH, 2021. - 161-162-s.
[3]

masxaraboz, g‘alati harakatli, aqldan yiroq qilib tahqirlash uchun ishlatiladi.

4. Metaforik va konnotativ ma’noning ko‘rsatilishi:

Aksariyat haqoratli so‘zlar metafora asosida shakllangan bo‘lgani uchun ularning ko‘chma ma’nodagi ishlatilish sababi ham ko‘rsatiladi. Bu – lingvokulturologik yondashuvni mustahkamlaydi. Masalan: sigir – ayol kishiga nisbatan sust, fahmsiz yoki semiz ma’nosida ishlatiladi (zoomorf metafora asosida).

5. Foydalanish konteksti va uslubiy belgi:

So‘zning qaysi uslubda ishlatilishi (quyi uslub, argon, sleng) va kimga qaratilgan holatda qo‘llanilishi haqida ma’lumot beriladi. Bu uni noto‘g‘ri talqindan saqlaydi. Masalan: [quyi uslub, og‘zaki nutqda ishlatiladi, tahqirlovchi tusda].

6. Ekvivalentlar (rus, ingliz, nemis tillarida):

Ko‘ptillilikni nazarda tutgan holda, haqoratli birliklarning boshqa tillardagi eng yaqin leksik ekvivalentlari beriladi. Bu – tarjimaviy izlanishlar va so‘zning madaniyatlararo semantikasini aniqlashda foydali bo‘ladi. Masalan: tulki – ruschasi: лиса (перен. хитрый человек), inglizchasi: fox (metaph. cunning person).

7. Qo‘llanish namunasi (kontekstual misol):

So‘z real nutqdagi qo‘llanish namunasi bilan mustahkamlanadi. Bunda badiiy asarlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki og‘zaki nutqdan olingan iqtiboslar keltiriladi.

Masalan: «Sen itvachcha, yana kimga telefon qilyapsan?» (so‘kinch sifatida ishlatilgan holat).

Xumpar (ot) – mushukning bolasi [1](denotativ ma’no). Xumpar – hazil aralash yengil so‘kish[2], aqli past, e’tiborsiz, mas’uliyatsiz (konnatativ ma’no). [og‘zaki nutqda ishlatiladi]. [Past ekspressivlik]. Xumpar – inglizcha: kitten, ruscha: котёнок. – Voybo‘y tirikmisan, xumpar Toshkentga qachon kelding?.. – dedi Shum bolaga Turobboy. (G‘.G‘ulom, Shum bola.)

O‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlarni izohli lug‘at shaklida tizimlashtirish dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Ushbu maqolada haqoratli so‘zlarning lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida bu so‘zlar til tizimidagi salbiy emotsional yuklamaga ega leksik birliklar sifatida baholanib, ularning semantik tasnifi, konnotativ xususiyatlari, metaforik shakllanish mexanizmlari, uslubiy belgilar va kontekstual ishlatilish doiralari aniqlandi.

Haqoratli birliklarni lug‘atlashtirishda xorijiy tajriba (Allan va Burridge asarlari) hamda zamonaviy tilshunoslikning emotsional semantika, tabu va dizfemizmga oid yondashuvlaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, so‘zlarning ekvivalentlarini rus, ingliz tillarida aniqlash, ularning madaniyatlararo semantik farqlarini ko‘rsatish lug‘atning funksional va ilmiy qadriyatini oshiradi. O‘zbek tili haqoratli leksikasining bugungi kundagi ijtimoiy-nutqiy faoliyati, ayniqsa yoshlar va ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikatsiyada faol qo‘llanilishi, ularni ehtiyotkorlik bilan, aniq mezonlar asosida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada ilgari surilgan tamoyillar asosida tuziladigan izohli lug‘at nafaqat tilshunoslik uchun, balki ta’lim, madaniyat, huquq va axloq sohalarida ham amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Tadqiqot haqoratli so‘zlarning lingvistik mohiyatini ochib berish barobarida, jamiyatdagi til madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim qadam hisoblanadi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi haqoratli so‘zlarning lingvistik tabiati, ularning shakl, mazmun va kontekstual xususiyatlari, shuningdek, izohli lug‘at tuzish tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Haqoratli so‘zlar semantik, pragmatik, emotsional va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida guruhlarga ajratilib, ularning zoomorf metafora orqali shakllanishi, evfemizm va dizfemizm hodisalari ham yoritilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tajriba, xususan, Allan va Burridge tadqiqotlari asosida, haqoratli so‘zlarning ijtimoiy, axloqiy va madaniy chegaralarni belgilovchi til birliklari sifatidagi roli ochib berilgan. Rejalashtirilayotgan izohli lug‘atda har bir so‘zning grammatik, semantik, stilistik, kontekstual va tarjimaviy xususiyatlarini aniqlash, ular uchun neytral va ilmiy ta’rif berish zarurligi asoslab berilgan. Maqola til madaniyatini oshirish, nutqdagi salbiy birliklarni ilmiy mezonlar asosida baholash hamda yosh avlodni ehtiyotkorlik bilan nutq tuzishga o‘rgatishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Resume. This article provides a linguistic analysis of offensive words in the Uzbek language, exploring their form, meaning, and contextual features, as well as the principles of compiling an explanatory dictionary. The study classifies offensive lexicon based on semantic, pragmatic, emotional, and sociolinguistic criteria, highlighting the role of zoomorphic metaphors, euphemisms, and dysphemisms. Drawing on international research, particularly the works of Allan and Burridge, the paper emphasizes how such words function as

[1] Erkin Vohidov. So‘z latofati. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

[11] O‘TIL. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot, 2023. 4-jild. – 185 s.

[2]

linguistic markers of social, moral, and cultural boundaries. The proposed dictionary aims to include each word's grammatical, semantic, stylistic, contextual, and translational characteristics, with neutral and scientifically grounded definitions. The article serves as an important resource for improving language culture, evaluating negative speech units through scholarly approaches, and guiding youth toward more conscious and respectful communication.

Резюме. В данной статье представлен лингвистический анализ оскорбительной лексики в узбекском языке, раскрываются особенности их формы, значения и контекстуального употребления, а также принципы составления толкового словаря. Оскорбительные слова классифицируются с точки зрения семантики, прагматики, эмоциональной окраски и социолингвистических признаков. Особое внимание уделяется зооморфным метафорам, эвфемизмам и дисфемизмам. На основе зарубежных исследований, в частности работ Аллана и Бёрриджа, подчеркивается роль таких слов как лингвистических маркеров социальных, моральных и культурных границ. Предполагаемый словарь должен включать грамматические, семантические, стилистические, контекстуальные и переводные особенности каждой единицы, с нейтральными и научно обоснованными определениями. Статья служит важным ресурсом для повышения языковой культуры, научного осмысления негативной лексики и воспитания речевой осмотрительности у молодежи.